

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KARABAYEV MAXSETBAY DJOLDASBAYEVICH

**QURILISH SOHASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI
SHARTNOMAVIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy
Оглавление автореферата диссертации доктора философии

Karabayev Maxsetbay Djoldasbayevich Qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatini shartnomaviy tartibga solish	3
Karabaev Makhsetbay Djoldasbaevich Contractual relation of entrepreneurial activity in construction	23
Карабаев Махсетбай Джолдасбаевич Договорное регулирование предпринимательской деятельности в сфере строительстве.....	41
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati List of published works Список опубликованных работ.....	45

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KARABAYEV MAXSETBAY DJOLDASBAYEVICH

**QURILISH SOHASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI
SHARTNOMAVIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Yu 1621 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNET» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Imomov Nurillo Fayzullayevich**
yuridik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Yakubov Axtam Nusratilloevich**
yuridik fanlari doktori, dotsent
Kalandarova Malikaxon Pirnazarovna
yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 8-noyabr soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi 35. Tel.: (998971) 233-66-36; faks: (998971) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1434-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, A.Temur ko'chasi 13. Tel.: (998971) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 17-oktabr kuni tarqatildi.
(2025 yil 17 oktabrdagi 93-raqamli reestr bayonnomasi).



U. Rustambekov

I.R. Rustambekov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y. Xabibullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K. Xodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyodagi aholi soni oʻsishi kuzatilayotgan davlatlar, oʻz aholisining bino va inshootlar, infrastrukturaviy obyektlarga degan ehtiyojini qondirish masalasini davlat siyosati darajasiga chiqargan. Har bir davlat iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda qurilish industriyasini rivojlantirish qurilish sohasidagi tadbirkorlarni har xil dasturlar, imtiyozlar, qonunchilik sohasini liberallashtirish orqali qoʻllab-quvvatlamoda. Oʻtgan yillarda Xitoy 1237.7 mlrd.doll., AQSh 1090.1 mlrd.doll., Hindiston 257.9 mlrd.doll., Yaponiya 235.0 mlrd.doll., Germaniya 211.5 mlrd.doll., Rossiya 163.1 mlrd.doll., qoʻshnilarimiz Qozogʻiston 11.9 mlrd.doll., Turkmaniston 4.8 mlrd.doll., Qirgʻiziston 0.81 mlrd.doll. va davlatimiz tomonidan 5.0 mlrd.dollar qurilish ishlariga safarbar qilingan.

Jahonda qurilish sohasidagi huquqiy muammolarni bartaraf etish uchun uy-joy qurilish sohasida toʻlovlarni amalga oshirish mexanizmiga shartli deponentlash (*escrow*) tizimi XX asrning yetmishinchi yillarning oʻrtalaridan amalga kiritila boshlagan. Xalqaro miqyosda koʻzga koʻringan FIDIK (*FIDIC*)¹, *EPC (Engineering, Procurement and Construction)*² va Buyuk Britaniyaning milliy qonunchilik doirasida qabul qilingan *JCT (Joint Contracts Tribunal)*³, *NEC (New Engineering Contract)*⁴, *RIBA (Royal Institute of British Architects)*⁵ proformalarning ishlab chiqilishi tadbirkorlik faoliyati shartnomaviy munosabatlarini tartibga solishning yangi bosqichiga olib chiqdi. Albatta, XXI-asrdagi texnologiya rivojlanishining taʼsiri qurilish sohasini ham raqamlashtirishga olib keldi. Natijada qurilish loyihalarini va ushbu sohadagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimi *CRM (Customer Relationship Management)* mijozlar haqidagi maʼlumotlarni toʻplash, tahlil qilish va ular bilan samarali muloqot qilishga yordam beradi. Qurilish sohasida bu tizim mijozlarning talablarini aniqlash, loyihalashtirish jarayonida ular bilan yaqin hamkorlik qilish va loyiha tugallanganidan keyin ham munosabatlarni davom ettirish uchun muhimdir. Korxonalar resurslarini rejalashtirish tizimi *ERP (Enterprise Resource Planning)* korxonaning barcha asosiy jarayonlarini birlashtiruvchi yagona platformadir. Qurilish sohasida ERP tizimi loyihalashtirish, xarid qilish, ishlab chiqarish, buxgalteriya hisobi va boshqa koʻplab jarayonlarni avtomatik tarzda boshqarish imkonini beradi.

Mamlakatimizda esa birgina 2023 – yilni olib qaraydigan boʻlsak, sudlarda pudrat shartnomalari yuzasidan 1778 ish, investitsion nizolar yuzasidan 119 ish, ulushdorlarning nizolari yuzasidan 2022 yili 76 shi sudga chiqqan boʻlsa, 2023 yili esa 93 ish koʻrilgan. Nizoli qurilish ishlarining yildan yilga oʻsish tendensiyasi

¹ FIDIC (FIDIK– muhandis-maslahatchilarning Xalqaro Federatsiyasi nomining frantsuz tilidagi qisqartmasi: Fédération Internationale des Ingénieurs-Conseils).

² EPC(Engineering, Procurement and Construction): Muhandislik, taʼminot va qurilish

³ JCT (Joint Contracts Tribunal): Birlashgan shartnomalar tribunali

⁴ NEC (New Engineering Contract): Yangi muhandislik shartnomasi.

⁵ RIBA (Royal Institute of British Architects): Buyuk Britaniya arxitektura instituti.

kuzatilmoqda. Shuning uchun uzoq vaqt davomida qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining shartnomaviy munosabatlarini tartibga solish mexanizmlarini amalda qoʻllayotgan rivojlangan mamlakatlarning tajribasini Oʻzbekiston Respublikasida joriy etish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun, qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining shartnomaviy munosabatlarini tartibga solishdagi "munosib darajada" doktrinasi (*Quantum Meruit Doctrine*), Speri doktrinasi (*The Spearin Doctrine*), *lex constructionis* doktrinasi va doiraviy ittifoq shartnomasi (*Framework Alliance Contract, FAC-1*), qurilishning axborot modeli (*Building Information Modeling, BIM*) kabi texnologik yechimlarning bugungi kunga qadar yaxlit tadqiqot sifatida oʻrganilmagan. Ularning ayrimlarini Oʻzbekiston sharoitida qoʻllash masalalari tahlil qilinmagan. Shunga koʻra mamlakatimizda qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining shartnomaviy munosabatlarini yanada liberallashtirish va himoya qilish bilan bogʻliq qonunchilik hamda huquqni qoʻllash amaliyotini takomillashtirish va istiqbollari belgilash zaruriyati vujudga kelmoqda, deyish mumkin.

Bugungi kunda qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyati shartnomaviy munosabatlarini tartibga soluvchi Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Oʻzbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi, Oʻzbekiston Respublikasining Iqtisodiy prosessual kodeksi, «Xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 avgustdagi "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida" 305-son qaror, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 iyuldagi "Aholi punktlarini qurishda shaharsozlik va er toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga qatʻiy rioya etilishini taʼminlashga, shuningdek tadbirkorlik maqsadlari uchun er ajratish tartibini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida" 467-son qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 fevraldagi "Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan oʻtkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" PQ 3550-son qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 maydagi "Koʻp kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish chora-tadbirlari haqida" PQ-4732-son qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarda keltirilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Mazkur mavzuni oʻrganishda qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatining shartnomalari bilan bogʻliq munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan xorijiy davlatlar qonunchilik hujjatlari, huquqni qoʻllash amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud boʻlgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar bayon etilgan adabiyotlardan foydalanildi.

Umumiy olib qaraganda mamlakatimiz olimlari tomonidan qurilish shartnomasining umumiy masalalari, shuningdek, muayyan turlari tadqiq etilgan. Jumladan, X.Rahmonqulov, K.Rashidov, O.Oqyulov, S.S.Gulyamov, Sh.N. Ruzinazarov, B.B.Samarxodjayev, N.F.Imomov, I.R.Rustambekov, M.Baratov va boshqalar.

Qurilish bo'yicha shartnoma munosabatlarining alohida masalalari bo'yicha uzoq xorijlik olimlar Siril Chern, Xyuz U., Champion R., Merdok Dj. Rodjer ter Xaar, Beyley Dj., Teo M.M., Luzmor M., Xyudjes U.P., Braun A.D., Pua F.T.T. va Elliot P. kabi olimlarning ishlarida va boshqada olimlar tomonidan o'rganilgan.

MDH davlatlarida Boguslavskiy, M.I. Braginskiy, V.V. Vitryanskiy, E.E. Shevchenko, V.V. Nikitin, O.V. Makarov, S.N.Mokrov, S.V.Kovedyaev, E.L.Abramsova, T.N.Gromova, I.V.Beklenishcheva, V.P.Bugorskiy asarlarida batafsil va keng tushuntirishlar berilgan.

Garchi tadqiqot mavzusi doirasida muayyan ilmiy ishlanmalar mavjud bo'lsa-da, bugungi kunda O'zbekistonning rivojlanish sharoitida fuqarolik qonunchiligi, huquqni qo'llash amaliyoti yuzasidan qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining shartnomaviy munosabatlarini tartibga solish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Rivojlangan davlatlar qonunchilik amaliyoti va fuqarolik huquqi yutuqlarini nazariy tadqiq etish asosida olingan natijalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalari" mavzusidagi fundamental loyihasi (2021-2023 yillar) doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekistonda qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyati shartnomaviy tartibga solish bilan bog'liq ilmiy-nazariy va amaliy muammolarni aniqlash hamda qonunchilikni takomillashtirish va uni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotining vazifalari:

qurilish sohasida tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalar turlarini o'rganish;

qurilish sohasida yuzaga keladigan investitsion-shartnomaviy munosabatlarni tahlil qilish;

qurilish pudrati shartnomasining huquqiy xususiyatlarini aniqlash;

qurilish pudrati shartnomasi bo'yicha tomonlarning majburiyatlarni bajarish mexanizmlarini tahlil qilish;

qurilish pudrati shartnomasi bo'yicha tomonlarning fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalarini o'rganish;

qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solishdagi muammolar va xorij amaliyotini o'rganib chiqib, bu boradagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish chogʻida yuzaga keladigan shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishning nazariy va amaliy muammolariga doir munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti qurilish sohasida shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qoʻllash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud boʻlgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar, gʻoyalar va huquqiy takliflardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy huquqiy, mantiqiy (tahlil, sintez, induksiya va deduksiya), statistik kabi usullar qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

binolar va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda taʼmirlash, muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, taʼmirlash va foydalanishga topshirishda, servitutlar binolar va inshootlar mulkdorlarining manfaatlarini oʻzga shaxsning yer uchastkasidan foydalanish huquqini cheklamasdan taʼminlash mumkin boʻlmagan hollarda belgilanishi asoslab berilgan;

ajratilgan mablagʻlar maqsadli hamda samarali sarflanishini taʼminlash uchun moliyalashtirish hajmlarini qurilish-montaj ishlarining kalendar jadvallari bilan uzviy bogʻliqlikda aniqlashtirgan holda, yildan yilga oʻtuvchi qurilish obyektlarini belgilash asoslantirilgan;

2024-yilda yangidan boshlanadigan loyihalar (obyektlar) boʻyicha tasdiqlangan loyihaoldi va (yoki) loyiha hujjatlari asosida belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillarini yakunlash va tanlov (tender) gʻoliblari bilan pudrat shartnomalarini tuzish choralari asoslab berilgan;

elektron tender jarayonlarini oʻtkazish va tender gʻolibi bilan shartnoma tuzishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarurligi asoslantirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilish shartnomalarining turli xillari, jumladan, pudrat shartnomasi, investitsiya shartnomalari va ulush asosida ishtirok etish shartnomalari yordamida munosabatlar yaxshilanadi. Bu, oʻz navbatida, shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilab, ularni oʻz vaqtida va sifatli bajarish imkoniyat berishi asoslab berildi;

taraflar oʻrtasidagi javobgarlikni belgilash orqali shartnoma buzilishi yoki belgilangan muddatlar buzilganida kelib chiqadigan oqibatlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu qurilish loyihalarini oʻz vaqtida bajarish va xarajatlarni nazorat qilishga yordam berishi asoslantirildi;

shartnomalarda sifat standartlari va ularga muvofiq nazorat qilish mexanizmi belgilab qoʻyilgan holda, ishlarning belgilangan sifat darajasiga erishish taʼminlanadi. Bu ham davlat, ham xususiy sektor loyihalari uchun muhim omil ekanligi asoslab berildi;

qurilish shartnomalari tuzilishida moliyaviy hisob-kitoblar va byudjet masalalari toʻgʻri tashkil etilgan holda, ishlarni samarali amalga oshirish va iloji

boricha xarajatlarni kamaytirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, moliyalashtirish, kafolatlar va to'lov tartiblari belgilanib, shartnoma natijasida sarmoyachilar va tadbirkorlar o'rtasida ishonchli hamkorlik rivojlanadi;

qurilish faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni sud tizimi yoki shartnomaviy himoya vositalarini qo'llab hal qilish mexanizmi rivojlanadi. Bunda sud tizimi va muqobil usullar orqali shartnomaviy nizolarni hal qilish tartiblari takomillashtiriladi.

qurilish sohasida shartnomaviy munosabatlarning aniq va huquqiy tartibga solinishi natijasida sarmoyalarni jalb qilish, yangi qurilish loyihalarini amalga oshirish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik kuchayadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro xususiy huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotining tahlili asosida olingan natijalar qurilish sohasidagi vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, fuqarolik qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi, shartnoma huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy-tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o'qitishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

binolar va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta'mirlash, muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va foydalanishga topshirishda, servitutlar binolar va inshootlar mulkdorlarining manfaatlarini o'zga shaxsning yer uchastkasidan foydalanish huquqini cheklamasdan ta'minlash mumkin bo'lmagan hollarda belgilanishga doir takliflarni O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 81-modda birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 23-oktyabrdagi № 18-son dalolatnomasi). Ushbu taklif shaharsozlik faoliyatida ishtirok etuvchi subyektlarning to'sqinliksiz qurilish ishlarini bajarish imkonini berishga xizmat qilgan;

ajratilgan mablag'lar maqsadli hamda samarali sarflanishini ta'minlash uchun moliyalashtirish hajmlarini qurilish-montaj ishlarining kalendar jadvallari bilan uzviy bog'liqlikda aniqlashtirgan holda, yildan yilga o'tuvchi qurilish obyektlarini

belgilashga oid taklifni (ro'yxat raqami 04-09/7-10/811, 2024 yil 11 oktyabr) ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024-yil 17-yanvardagi 29-13-0-Q/24-son qarori). Ushbu taklif qurilish shartnomalaridagi ishni bajarish muddatlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishda odil sudlovni amalga oshirilishiga imkon bergan;

2024-yilda yangidan boshlanadigan loyihalar (obyektlar) bo'yicha tasdiqlangan loyihaoldi va (yoki) loyiha hujjatlari asosida belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillarini yakunlash va tanlov (tender) g'oliblari bilan pudrat shartnomalarini tuzish choralariga oid taklifni (ro'yxat raqami 04-09/7-10/811, 2024 yil 11 oktabr) ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024-yil 17-yanvardagi 29-13-0-Q/24-son qarori). Mazkur taklif qurilish sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining halol raqobat asosida tenderlarga qatnashish va shartnomaviy munasabatlarga kirishishga xizmat qilgan.

elektron tender jarayonlarini o'tkazish va tender g'olibi bilan shartnoma tuzishga oid taklifni (ro'yxat raqami 04-09/7-10/811, 2024 yil 11 oktyabr) ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 24-fevraldagi 72-13-0-Q/23-son qarori). Ushbu taklif davlat xaridlarida tender o'yinlarini o'tkazishda shaffoflikni yanada oshirish va tadbirkorlik subyektlari bilan qurilish pudrati shartnomalarini tuzish imkoniyatini ta'minlagan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta Respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi va undagi xulosa, taklif va tavsiyalar bo'yicha jami 12 ta, OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta (2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 betni (foydalanilgan adabiyotlardan tashqari) tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning *“Shartnomaviy huquqiy tartibga solish obyekti sifatida qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining umumiy tavsifi”* deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning keyingi boblarda muhokama qilingan muammolarni ishlab chiqish uchun nazariy asosning tahlili yoritilgan. Ushbu bobda tadbirkorlik

sifatida qurilish sohasining tushunchasi, xususiyatlari, tadbirkorlik faoliyatining qurilish sohasidagi tizimi, turlari va ularni tasniflash, va yana qurilish sohasidagi tadbirkorlikning huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Ushbu bobda qurilish huquqiga oid huquqiy nazariyalar (doktrinlar), ularning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq jihatlari, qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining fuqarolik-huquqiy belgilari va huquqiy modellariga tahlil qilingan. Zamonaviy qurilish huquqida amal qilayotgan mohiyatan bajarish doktrinasini (*Legal Doctrine of Substantial Performance*), asossiz bo'lik orttirish doktrinasini (*Doctrine of Restitution*), shartnoma tuzish erkingligi doktrinasini (*Contract Doctrine*), frustratsiya doktrinasini (*Doctrine of Frustration*), subrogatsiya doktrinasini (*Doctrine of Subrogation*), shartnoma ishtirokchilari doktrinasini (*Doctrine of Privity of Contract*), adolatlilik doktrinasini (*Doctrine of Equitable*), xaridorning ehtiyot bo'lish kerakligi doktrinasini (*Legal Doctrine Of Caveat Emptor*) va zamonaviy qurilish konsorsiumi nazariyasi (*Construction Consortia Theory*) kabi nazariya va doktrinalarning mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Ushbu doktrinalarning milliy qonunchilikdagi ifodasi va qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatini yuritishda ularning ta'siri yuzasidan fikrlar bildirilgan.

Qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishda, Buyuk Britaniya va Rossiya tajribasi, ayniqsa, qurilish shartnomalaridagi huquqiy qarorlar va pudratchilik faoliyatiga doir normativlar misolida o'rganilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida qurilish faoliyatini tartibga solishdagi innovatsion yondashuvlar va qonuniy chora-tadbirlar, masalan, Shaharsozlik kodeksi va boshqa normativ hujjatlar orqali amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish zarurati bayon qilingan.

Qurilish nizolarni hal etishda odil sudlovni amalga oshirish sud tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Sperin doktrinasiga (*Spearin Doctrine*) ko'ra, quruvchi yoki pudratchi, agar loyiha dizayni yoki chizmalarida xatoliklar bo'lsa, bu xatoliklar uchun mas'ul bo'lmaydi. Bu doktrina loyiha boshqaruvchilari yoki loyiha egalari uchun mas'uliyatini ta'minlashga yordam beradi, chunki ular noto'g'ri yoki noaniq loyihalarni taqdim qilgan bo'lsa, bu loyiha bajarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni quruvchiga qiyinlashtirmasdan o'z zimmasiga olishi xususida so'z yuritilgan.

Shuningdek, amaliyotda, shartnoma imzolanmagan yoki to'liq bajarilmagan holatlarda, amalga oshirilgan ish uchun adolatli to'lovni ta'minlash uchun qanchaga loyiq doktrinasini (*Quantum Meruit Doctrine*) ko'rib chiqiladi. Agar quruvchi yoki pudratchi amalga oshirilgan ish uchun hech qanday belgilangan to'lovni olmasa, ular o'z mehnatlari yoki xizmatlari uchun "adolatli" kompensatsiyani olish huquqiga egaligi va shartnoma yoki kelishuvda aniq narx belgilangan bo'lmasa ham, ishning amalga oshirilgan qismi uchun haq to'lanishini ta'minlashga imkon berishi tahlil qilingan.

Tadqiqotchi qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining tushunchasi va uning fuqarolik-huquqiy belgilari haqida ham ushbu bobda to'xtalib o'tganligini ko'rish mumkin. Qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining tushunchasini tahlil qilishda u ko'plab huquqshunos (U. Xyujes, R. Chempion, J. Murdoch, Siril Chern, L. V. Salnikov., I.L. Braude, D.M. Seledchik, A.S. Kojevnikov, E.A.

Onishina, M. Yu. Kotina, E.S. Boltayeva, O. A. Jarova) olimlarning fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan.

. Shuningdek, dissertant qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qurilish ishlariga jalb qilinuvchi mutaxassislarning malakaviy talablari haqida tahlil qiladi. Ushbu talablarning chet el huquqiy normalaridagi mavjud talablar bilan o'zimizning huquqiy normalar taqqoslanib, qurilish obyektlarining xavf-xatar toifasi bo'yicha murakkablik darajasining uchinchi toifa obyektlarini qurishda mutaxassislarga muayyan talablarning ishlab chiqish ahamiyatini ochib bergan.

Qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining fuqarolik-huquqiy belgilarini ochib berishda qonunchilik va olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari bilan cheklanilmasdan, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining (masalan, ***Building Information Modeling, BIM***) zamonaviy qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyati boshqaruvining takomillashuv istiqbollari asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "***Qurilish sohasi bo'yicha fuqarolik-huquqiy shartnomalarning tavsifi***" deb nomlanib, ushbu bobda qurilish shartnomalari tizimining asosini tashkil etuvchi loyiha va qidiruv ishlari pudrati shartnomasi, qurilish pudrat shartnomasi, ulush kiritish asosida qurilish shartnomalarining huquqiy tabiatini belgilash kabi masalalar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi qurilish sohasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'p tuziladigan qurilish pudrat shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolarning kelib chiqish sabablarini o'rgangan. Ushbu nizolar, ko'pincha, shartnomalar tuzishdagi noaniqliklar, pudratchilarning mehnat sharoitlarini ta'minlashdagi nuqsonlar, ish vaqtining uzayishi, narxlar o'zgarishi va boshqa iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. Rossiya davlatining qurilish sohasidagi nizolarni hal etish va oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarining tahlili, ayniqsa, sohada yuzaga keladigan nizolarni samarali tartibga solish va ular bo'yicha huquqiy qarorlar chiqarishni yengillashtirishga qaratilgan metodlarni ko'rib chiqadi.

Bunda dissertant bir qator olimlar (M.I. Braginskiy, V.V. Vitryanskiy, E.A. Suxanov, N.D. Egorov, R.O. Xalfina, Z.I. Shkudin, S.F. Kecheryan, V.P. Gribanov, M.Y. Chernyak, A.P. Sergeev)ning fikr va qarashlaridan foydalangan.

Shuningdek, tadqiqotchi rivojlangan davlatlarda keng qo'llaniladigan "***Design and Build***" usulini, qurilishda loyiha va qurilish ishlari bitta pudratchi tomonidan amalga oshiriladigan yondashuvga e'tiborni qaratadi. Bu usulda, loyiha boshqaruvchi tashkilot loyiha ishlab chiqishdan boshlanib, qurilish ishlarini yakunlashgacha barcha jarayonlarni o'z zimmalariga olishligini ko'rsatib o'tadi. Bu jarayonda, ishlar bir nechta mustaqil subyektlar o'rtasida bo'linib ketmaydi, balki bitta pudratchi tomonidan amalga oshirilishini va bu yondashuv qurilish shartnomalarining samarali bajarilishini ta'minlash uchun bir qancha huquqiy asoslar va me'yorga asoslanishni, ushbu usulda pudratchi shartnoma bo'yicha ikkilamchi mas'uliyatlarni bajarishi kerakligi, ya'ni loyiha dizaynini yaratishdan to qurilish ishlarini tugatishgacha bo'lgan jarayonlar uchun mas'ulligi ko'rsatiladi. Bu shartnoma tuzishda tizimli va tartibli yondashuvni ta'minlash uchun bir nechta

huquqiy mexanizmlar, jumladan, mehnat huquqi, qurilish xavfsizligi, atrof-muhitni himoya qilish, va loyiha bajarilishida to'lovlar tizimini yoritib bergan.

Xalqaro moliya institutlari tomonidan infrastruktura obyektlarini moliyalashda **EPC (Engineering, Procurement and Construction)** namunaviy shartnomalarining tartibga solish munosabatlari tahlil qilingan. Bu yondashuvda pudratchi loyihaning barcha bosqichlarini o'z zimmalariga olishi, loyihaning injiniringi (texnik loyihalash), zaruriy materiallar va jihozlarni sotib olishi va qurilish ishlarini amalga oshirilishi batafsil yoritilgan. EPC yondashuvi, asosan, sanoat obyektlari va infratuzilma loyihalarida qo'llanilishi tahlil qilingan.

Dissertant EPC shartnomasi O'zbekiston qonunchiligida alohida shartnoma turi sifatida mavjud emasligini, ushbu shartnoma turi aralash shartnoma bo'lib, unda qurilish pudratchilik shartnomasi, loyihalash va izlanish ishlari bo'yicha pudratchilik shartnomasi, xizmat ko'rsatish shartnomasi va yetkazib berish shartnomasidagi kelishuv shartlarini o'z ichiga olishini ta'kidlaydi: Shu sababli, EPC shartnomasini tuzishda tomonlar yuqorida keltirilgan har bir shartnoma turi uchun muhim shartlar va majburiy talablarni hisobga olishlari kerakligini asoslantiriladi.

Tadqiqotchi iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy bosqichidagi davlat-xususiy sherikchilikning (**Public Private Partnership, PPP**) qurilish sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning o'ziga xos taraflarini o'rganishda, ushbu yondashuvning iqtisodiy, huquqiy va boshqaruv jihatlariga e'tibor qaratadi. Davlat-xususiy sherikchilik shartnomasining asosiy jihati — davlat va xususiy sektor o'rtasida resurslar va risklar taqsimoti ekanligi va shartnoma tuzish jarayonida davlat tomonidan amalga oshiriladigan qurilish loyihalarga xususiy sektorning sarmoyalari va texnik xizmatlari jalb qilinishi, ko'pincha katta miqdordagi infratuzilma loyihalari, uy-joy qurilishi va boshqa davlat ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilishi tahlil qilingan.

Shuningdek, raqamlashtirish texnologiyalaridan foydalangan holda qurilish loyihalarini va ushbu sohadagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimi hisoblangan **CRM (Customer Relationship Management)** mijozlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ular bilan samarali muloqot qilish va qurilish sohasida bu tizim mijozlarning talablarini aniqlash, loyihalashtirish jarayonida ular bilan yaqin hamkorlik qilish va loyiha tugallanganidan keyin ham munosabatlarni davom ettirish uchun muhimligi ta'kidlangan. Korxonalar resurslarini rejalashtirish tizimi **ERP (Enterprise Resource Planning)** korxonaning barcha asosiy jarayonlarini birlashtiruvchi yagona platforma ekanligi va qurilish sohasida ERP tizimi loyihalashtirish, xarid qilish, ishlab chiqarish, buxgalteriya hisobi va boshqa ko'plab jarayonlarni avtomatik tarzda boshqarish bugungi kunning muhim texnologik yechim degan xulosaga kelgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Qurilish sohasida tadbirkorlik subyektlarining javobgarligi asoslari va ularni ta'minlash muammolari”** haqida so'z yuritilgan bo'lib, unda tadbirkorlik subyektlarining qurilish pudrati shartnomasi bo'yicha fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslari va ularni takomillashtirish muammolari, tadbirkorlik faoliyati subyektlari ishtirokidagi

tuziladigan qurilish bo'yicha investitsiya shartnomasini takomillashtirish masalalari bo'yicha tahlili amalga oshirilgan.

Dissertantning empirik tadqiqot olib borish natijalari bo'yicha pudrat shartnomalarining predmeti bo'lgan qurilish ishlariga asosan ikki yillik sifat kafolati berilishi aniqlangan. Lekin bino va inshootga ikki yillik sifat kafilligi tushunchasiga aniqlik kiritish maqsadida tadqiqotchi tomonidan qonunchilikka ushbu munosabatlarni tartibga soluvini yanada takomillashuviga asos bo'ladigan quyidagi yangi huquqiy atamalarni taklif etadi:

“birlamchi konstruktsiya” - bu bino (poydevor, devor, rigelъ, qoplama va tomni mahkamlash tizimlari) va inshootning (hajmiy, yassi yoki chiziq tarzidagi konstruktsiyalardan iborat obyektning oddiy faoliyat yuritishidagi zarur elementlar) mustahkamligini belgilovchi yagona tuzilma.

“ikkilamchi konstruktsiya” - bu birlamchi konstruktsiyaga kirmagan boshqa konstruktsiyalar.

Tadqiqotchining atamalarni qonunchilikka kiritishning maqsadi sifatida amaliyotda bino va inshootlarning sifat kafolatlari bilan bog'liq nizolarni hal etishda odil sudlov tamoyilini amalga oshirishdan iboratligini asoslab beradi.

Shuningdek, dissertant tomonidan qonunchilikdagi ulush kiritish asosidagi qurilish va qurilishi yakunlanmagan obyektning huquqiy maqomiga e'tiborni qaratadi. Ulush kiritish asosidagi qurilish shartnomalarining huquqiy tabiatini aniqlashda sud amaliyotda chalkashliklarga sabab bo'layotganligi va qurilishi yakunlanmagan obyektlarning fuqarolik muomalasiga kiritish munosabatlarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan bir qancha takliflarni ilgari so'radi.

Xususan, Fuqarolik Kodeksining 666 va 679 moddalariga bir qator o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish taklifi taqdim etiladi:

FKning 666-moddasi ikkinchi qismining quyidagicha tahriri: “...Qurilish pudrati shartnomasi to'g'risidagi qoidalar, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bino va inshootlarni kapital ta'mirlash ishlari va ulush kiritish asosidagi qurilish shartnomalariga ham qo'llaniladi,”.

to'rtinchi qismning quyidagicha tahriri: “Fuqarolarning uy-joy qurilishida ulush kiritish asosida ishtirokini belgilovchi shartnomalar davlat mulk huquqlarini ro'yxatga olish va ularga tegishli bitimlar bo'yicha qonunchilikka muvofiq tuziladi”.

679-moddaning nomi va mazmunidagi o'zgartirishlar va qo'shimchalar tahrirlari:

679-moddadagi “Qurilish konservatsiya qilinganda buyurtmachining majburiyatlari” nomini quyidagi tarzda o'zgartirish: “Qurilish konservatsiya qilinganda buyurtmachining majburiyatlari yoki qurilish obyektining yakunlanmasligi oqibatlarini”.

679-moddaga quyidagi tarzda ikkinchi qismining qo'shilish tahriri:

“Qurilish yakunlanmagan holatlarda, ushbu obyektlar, agar shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ularga bitimlar amalga oshirilishi mumkin”.

XULOSA

Qurilish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini shartnomaviy tartibga solishga oid tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy hamda qonunchilikka oid taklif va xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. *Quantum Meruit doktrinasini* O‘zbekistonda qurilish sohasiga tatbiq etish, mehnatning adolatli baholanishini va ishchilar huquqlarining himoya qilinishini ta‘minlaydi. Bu tizimni qo‘llashda, mavjud qonunchilikka asoslanib, samarali tartibga solish mexanizmlari va shartnoma huquqini yanada mustahkamlash zarur. Quantum Meruit — qurilish sohasida ishlovchilarni va pudratchilarni himoya qilish, shartnoma bo‘yicha muammolarni hal qilishda muhim huquqiy vosita bo‘lishi mumkinligi asoslantirilgan.

2. *Spearin doktrinasini* loyiha boshqaruvi va shartnoma munosabatlarini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu doktrina, qurilish tashkilotlari va pudratchilar o‘rtasida huquqiy noaniqliklarni kamaytiradi, loyihalarning sifatini oshiradi va qurilish jarayonlarini optimallashtirilishi asoslantirilgan.

3. Qurilish munosabatlari subyektlari o‘rtasida shartnoma mavjud bo‘lmagan yoki mavjud bo‘lgan lekin to‘liq bajarilmagan holatlarda, amalga oshirilgan ish uchun adolatli to‘lovni ta‘minlash uchun qanchaga loyiq doktrinasini (*Quantum Meruit Doctrine*) ko‘rib chiqiladi. Agar quruvchi yoki pudratchi amalga oshirilgan ish uchun hech qanday belgilangan to‘lovni olmasa, ular o‘z mehnatlari yoki xizmatlari uchun "adolatli" kompensatsiyani olish huquqiga egaligi va shartnoma yoki kelishuvda aniq narx belgilangan bo‘lmasa ham, ishning amalga oshirilgan qismi uchun haq to‘lanishini ta‘minlashga imkon berishi tahlil qilingan.

4. Qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatining huquqiy tartibga solinish tarmoqlararo xususiyatga ega. Bunda, qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi fuqarolik muomalasida ishtirok etuvchilarning huquqiy maqomini, shartnomalarni tuzish, o‘zgartirish, bekor qilish tartibini, qurilish muddatlarini belgilash va boshqa masalalarni aniqlashda ifodalanganligi asoslangan.

5. Qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan tarmoqlararo munosabatlarga kelsak, ular huquqiy tartibga solish predmetiga qarab turli xil normativ-huquqiy hujjatlar doirasiga tushadi: mehnat huquqi (masalan, xodimlarni qabul qilish, ishdan bo‘shatish va h.k.); ma‘muriy huquq (masalan, quruvchi tomonidan ma‘muriy huquq normalarini buzish); soliq huquqi (masalan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxs tomonidan soliqlarni to‘lash va boshqalar); shaharsozlik huquqi (masalan, shaharsozlik rejalashtirishni amalga oshirish); er huquqi (masalan, qurilish olib borish uchun er uchastkasi olish); ekologik huquq (masalan, qurilish ishlarini olib borishda ekologik normalarga rioya qilish va boshqalar).

6. Qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatida shartnomaviy munosabatlarning subyekti sifatida ishtirok etuvchi ulushdorning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida eskrou huquqiy institutini joriy etish orqali fuqarolik-huquqiy munosabatlarning shaffofligini ta‘minlash, moliyaviy xatarlarni

kamaytirish va shartnoma majburiyatlarining samarali bajarilishini kafolatlash taklif etilgan. Ushbu mexanizm ulushdorlar bilan developerlar o'rtasidagi kelishuvlarni amalga oshirishda yuqori darajada ishonchni ta'minlash hamda huquqiy himoyaning qonuniy asoslarini mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

7. Qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatida shartnomaviy munosabatlar tizimida loyihalash va qurilish ishlarini bitta subyekt tomonidan bajariladigan "***Design and Build***" huquqiy institutini joriy etish O'zbekiston Respublikasida qurilish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi, chunki bu institut loyiha ishlab chiqish va qurilishni bir subyekt zimmasiga yuklash orqali majburiyatlarni yagona muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Rivojlangan davlatlarda keng qo'llaniladigan ushbu model majburiyatlar va mas'uliyatning taqsimlanishidagi moslashmovchilik, hujjatlarning ortiqcha byurokratiyasi va kelishmovchiliklar ehtimolini kamaytirishga imkon yaratadi. O'zbekistonda qurilish faoliyatining ayrim holatlarda bir nechta shartnomalar orqali tartibga solinishi loyihaning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishini qiyinlashtirishi mumkin. Shu sababli, loyihalash va qurilish ishlarini bitta subyekt tomonidan bajariladigan "***Design and Build***" institutini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xatarlarni kamaytirish va shartnoma munosabatlarining mukammal huquqiy asoslarini yaratish uchun maqsadga muvofiqligi taklif etilgan.

8. Qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyati shartnomaviy munosabatlarga oid bir qator atamalar ilmiy va nazariy tahlil qilingan holda quyidagi atamalarga mualliflik ta'riflari berildi:

